



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**2026-YIL / IYUN/6-SON,  
V-QISM**



INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.  
V-qism*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqov**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayev**ich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayev**ich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy  
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va  
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi  
336/3-sonli qarori bilan  
ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
<b>I. R. Berdikulova</b>	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
<b>Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li</b>	
<b>Turobova Hulkar Rustamovna</b>	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
<b>Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich</b>	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ .....	38
<b>Абдуллаева М.Б.</b>	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
<b>Murodov Sherzodbek Murod o'g'li</b>	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
<b>Kalandarova Elnura Muzaffar qizi</b>	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
<b>Niyozov Zuxur Davronovich</b>	
<b>Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li</b>	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО .....	58
<b>Худойкулова Дилора Дилмуродовна</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
<b>Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi</b>	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
<b>Mavlyanova Dilobar Maxkamovna</b>	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	77
<b>Karimova Dilafruz Sadridin qizi</b>	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
<b>Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи</b>	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI .....	89
<b>Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna</b>	
<b>Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi</b>	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI .....	94
<b>Otarbayev Zamir Zairovich</b>	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI .....	100
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
<b>Хо'jamov Akbar Bahriddinovich</b>	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
<b>Djumayev Askar Xaydarovich</b>	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
<b>Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li</b>	
<b>Qahhorova Nargiza Qahramonovna</b>	
<b>Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li</b>	
<b>Jamilov Firdavs Otabek o'g'li</b>	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ .....	129
<b>Норкулов Хабибулло</b>	
<b>Абдурасулова Шахзода</b>	
<b>Бахриддинов Дилшодбек</b>	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV .....	135
<b>Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi</b>	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI .....	138
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ .....	147
<b>Джуманов А.А.</b>	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
<b>Masharipova Durdona Ulug'bekovna</b>	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
<b>Джуманов А.А.</b>	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
<b>Rahmanov Furqat Temirovich</b>	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН .....	179
<b>Ибрагимов Гайратжон Артикович</b>	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH .....	186
<b>Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich</b>	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
<b>Shakarov Zafar Gafforovich</b>	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI .....	198
<b>Boboqulov Sanjar Baxronkulovich</b>	
<b>Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li</b>	
<b>Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li</b>	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI .....	204
<b>Jiyanov Laziz Najimovich</b>	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	210
<b>Курбанова Дилфуза Махсудовна</b>	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	217
<b>Karimova Feruza Xamidullayevna</b>	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
<b>Ishniyazov Zoxid Normamatovich</b>	
FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI .....	226
<b>Inomov Daniyar Valijonovich</b>	



# FUQAROLAR MUROJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Inomov Daniyar Valijonovich

Erkin tadqiqotchi

E-mail: d90658013@gmail.com

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning zamonaviy yondashuvlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda fuqarolar murojaatlari hududlarda uchrayotgan dolzarb masalalar, aholining ehtiyojlari hamda davlat va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini aks ettiruvchi muhim axborot manbai sifatida qaralgan. Maqolada murojaatlar ma'lumotlarini yig'ish, tizimlashtirish va tahlil qilishning zamonaviy usullari, jumladan, raqamli texnologiyalar, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Shuningdek, fuqarolar murojaatlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash indikatorlari takomillashtirilib, mahalliy boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari hududiy rivojlanishni monitoring qilish, e'tibor talab qiluvchi yo'nalishlarni aniqlash hamda davlat boshqaruvi organlarining aholiga yo'naltirilgan faoliyatini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** fuqarolar murojaatlari, hududiy rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mahalliy boshqaruv, raqamli boshqaruv, Big Data, sun'iy intellekt, indikatorlar tizimi, monitoring, boshqaruv qarorlari, elektron murojaatlar, hududiy baholash.

**Abstract.** This article examines modern approaches to assessing the level of socio-economic development of regions based on citizens' appeals data. In the study, citizens' appeals are considered an important source of information reflecting existing regional problems, the needs of the population, and the effectiveness of the activities of state and local government bodies. The article covers modern methods of collecting, systematizing, and analyzing appeals data, including the use of digital technologies, Big Data analysis, and artificial intelligence. In addition, indicators for assessing the socio-economic condition of regions based on citizens' appeals have been improved, and practical recommendations aimed at increasing the effectiveness of local management decision-making have been developed. The research results are of significant importance for monitoring regional development, identifying problematic areas, and improving the population-oriented activities of public administration bodies.

**Keywords:** citizens' appeals, regional development, socio-economic development, local governance, digital governance, Big Data, artificial intelligence, indicator system, monitoring, management decisions, electronic appeals, regional assessment.

**Аннотация.** В данной статье исследованы современные подходы к оценке уровня социально-экономического развития регионов на основе данных обращений граждан. В исследовании обращения граждан рассматриваются как важный источник информации, отражающий существующие проблемы в регионах, потребности населения, а также эффективность деятельности государственных и местных органов управления. В статье освещены современные методы сбора, систематизации и анализа данных обращений, включая использование цифровых технологий, анализа больших данных (Big Data) и возможностей искусственного интеллекта. Кроме того, усовершенствованы индикаторы оценки социально-экономического состояния регионов на основе обращений граждан и разработаны практические рекомендации, направленные на повышение эффективности принятия управленческих решений на местном уровне. Результаты исследования имеют важное значение для мониторинга регионального развития, выявления проблемных сфер и совершенствования ориентированной на население деятельности органов государственного управления.

**Ключевые слова:** обращения граждан, региональное развитие, социально-экономическое развитие, местное управление, цифровое управление, Big Data, искусственный интеллект, система индикаторов, мониторинг, управленческие решения, электронные обращения, региональная оценка.



## KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezkor va aniq baholash hamda aholining ehtiyojlariga mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish masalalari ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanmoqda. Raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi natijasida davlat organlari faoliyatida katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Xususan, fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari hududlarda mavjud muammolarni aniqlash, aholi kayfiyati va ehtiyojlarini baholash hamda davlat xizmatlari sifatini oshirishning muhim axborot manbalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda davlat va jamiyat o'rtasidagi ochiq muloqotni ta'minlash, fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish hamda aholi muammolarini manzilli hal etishga qaratilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident virtual va xalq qabulxonalari tizimining joriy etilishi, davlat organlarining elektron murojaatlar platformalarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimining kengaytirilishi hamda hududlarni kompleks rivojlantirish dasturlarining amalga oshirilishi fuqarolar murojaatlarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Natijada murojaatlar nafaqat aholi muammolarini hal qilish vositasi, balki hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholovchi muhim indikator sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Xalqaro amaliyotda fuqarolar murojaatlari va jamoatchilik fikri ma'lumotlaridan davlat boshqaruvida samarali foydalanish bo'yicha ilg'or tajribalar shakllangan. Xususan, Estoniya raqamli hukumat tizimi orqali fuqarolar murojaatlari va elektron xizmatlar bo'yicha ma'lumotlarni real vaqt rejimida tahlil qilib, hududiy rivojlanish monitoringini amalga oshirmoqda. Singapurning "Smart Nation" dasturi doirasida aholi murojaatlari va raqamli platformalardan olingan ma'lumotlar asosida shahar infratuzilmasi va kommunal xizmatlar sifati muntazam baholanadi. Janubiy Koreyada faoliyat yuritayotgan e-People tizimi fuqarolar murojaatlarini markazlashgan tarzda qayta ishlash va davlat organlari faoliyatini baholash imkonini bermogda. Shuningdek, Buyuk Britaniya hamda AQShda jamoatchilik murojaatlari va ochiq ma'lumotlar bazalari asosida hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini monitoring qilish amaliyoti keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda fuqarolar murojaatlari ma'lumotlarini tahlil qilishda Big Data texnologiyalari, sun'iy intellekt, mashinali o'qitish algoritmlari va matnli ma'lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Ushbu yondashuvlar murojaatlar tarkibidagi muammolarni avtomatik aniqlash, hududlar kesimida tasniflash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillarni baholash imkonini bermogda. Shu nuqtai nazardan, fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning zamonaviy yondashuvlarini tadqiq etish, ularning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini aniqlash va amaliy mexanizmlarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash hamda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish masalalari iqtisodiyot, davlat boshqaruvi va raqamli texnologiyalar sohasidagi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarda fuqarolar murojaatlari, jamoatchilik fikri va raqamli platformalarda shakllanayotgan ma'lumotlarning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati alohida e'tirof etilmoqda.

Hududiy rivojlanishni baholashning nazariy asoslari xorijiy olimlardan M. Porter, J. Stiglitz, A. Sen va P. Krugmanlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ular hududiy rivojlanishning asosiy mezonlari sifatida iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi, infratuzilma sifati va institutsional samaradorlik ko'rsatkichlarini ilgari surganlar. Ayniqsa, A. Sen tomonidan ishlab chiqilgan inson taraqqiyoti konsepsiyasi hududiy rivojlanishni baholashda faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki aholi ehtiyojlari va turmush sifatini ham hisobga olish zarurligini asoslab bergan.

Davlat boshqaruvida fuqarolar ishtiroki va murojaatlarining ahamiyati bo'yicha tadqiqotlar Sh. Arnstein, T. Nabatchi, J. Rowe va L. Frewer tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur olimlar fuqarolar bilan samarali muloqot tizimi davlat boshqaruvi sifatini oshirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va boshqaruv qarorlarining samaradorligini ta'minlashda muhim omil ekanligini ta'kidlaganlar.

Raqamli boshqaruv va elektron hukumat tizimlari doirasida fuqarolar murojaatlaridan foydalanish masalalari D. Osborne, T. Gaebler, V. Mayer-Schönberger va K. Cukier tadqiqotlarida o'rganilgan. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, katta ma'lumotlar (Big Data) va raqamli platformalar orqali shakllanayotgan axborotlar davlat boshqaruvi organlariga hududlardagi muammolarni tezkor aniqlash, resurslarni samarali taqsimlash va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatini yaratadi.



O'zbekistonlik olimlardan A. Vahobov, Q. Abdurahmonov, B. Berkinov, A. Rasulov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan hududiy rivojlanish, davlat boshqaruvi samaradorligi hamda raqamli iqtisodiyot masalalari keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda statistik ko'rsatkichlar, investitsiyalar, bandlik, infratuzilma va aholi turmush darajasi kabi mezonlarga asosiy e'tibor qaratilgan.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda fuqarolar murojaatlari ma'lumotlaridan kompleks foydalanish, murojaatlar asosida hududiy muammolar indeksini shakllantirish hamda ushbu ma'lumotlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoniga integratsiyalash masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ayniqsa, elektron murojaatlar bazasi, sun'iy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish asosida hududiy rivojlanishni baholash metodologiyasini takomillashtirish dolzarb ilmiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish hamda fuqarolar murojaatlari ma'lumotlarini tahlil qilishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, kompleks tahlil va ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (Data-Driven Governance) konsepsiyalaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Virtual qabulxonasi, Xalq qabulxonalari, davlat organlarining elektron murojaatlar tizimlari hamda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalanish nazarda tutiladi. Fuqarolar murojaatlari hududlarda mavjud muammolar va aholining ehtiyojlarini aks ettiruvchi muhim axborot manbai sifatida qaraladi.

Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

Monografik tahlil usuli – mavzuga oid mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda xalqaro tajribalarni o'rganish va umumlashtirish uchun;

Qiyosiy tahlil usuli – hududlar kesimida fuqarolar murojaatlari tarkibi va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun;

Statistik tahlil usuli – murojaatlar soni, yo'nalishlari va dinamikasini baholash hamda ularning hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini aniqlash uchun;

Guruhlash va tasniflash usuli – murojaatlarni mavzulari va muammolar turi bo'yicha ajratish hamda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash uchun;

Indeksli baholash usuli – fuqarolar murojaatlari asosida hududlarning muammolar darajasi va boshqaruv samaradorligini ifodalovchi integral ko'rsatkichlarni shakllantirish uchun;

Korrelatsion tahlil usuli – murojaatlar soni va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun.

Tadqiqotda hududlarning rivojlanish darajasini baholash uchun aholi bandligi, o'rtacha daromadlar, kambag'allik darajasi, tadbirkorlik faolligi, investitsiyalar hajmi, kommunal xizmatlar sifati, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari bilan bog'liq ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlar fuqarolar murojaatlarida qayd etilgan muammolar bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi.

Shuningdek, tadqiqot doirasida fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda murojaatlar soni, murojaatlar tarkibi, muammolar intensivligi va murojaatlarning ijobiy hal etilish darajasi asosiy indikatorlar sifatida qabul qilinadi. Natijada hududlarning rivojlanish darajasi va mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligini kompleks baholash imkoniyati yaratiladi.


## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda an'anaviy statistik ko'rsatkichlardan foydalanish bilan bir qatorda aholi ehtiyojlari va mavjud muammolarni aks ettiruvchi ma'lumotlar manbalaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, fuqarolar murojaatlari davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning amaliy natijasi sifatida hududlarda mavjud muammolar, aholining talab va ehtiyojlari hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligi haqida muhim axborotlarni shakllantiradi.

Tadqiqot davomida fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning konseptual modeli ishlab chiqildi (1-rasm). Mazkur model fuqarolar murojaatlarining tarkibiy tahlili, muammolarni baholash va hududiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Modelning asosiy afzalligi shundaki, u nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularning hududiy rivojlanish jarayonlariga ta'sirini baholash imkonini ham beradi.



Modelga muvofiq, fuqarolar murojaatlari dastlab kommunal xizmatlar, bandlik, ijtimoiy himoya, yo'l infratuzilmasi, tadbirkorlik hamda ta'lim va sog'liqni saqlash kabi yo'nalishlar bo'yicha tasniflandi. Keyinchalik murojaatlar soni, takroriy murojaatlar ulushi, dolzarblik darajasi va hududlar kesimidagi ulushi asosida muammolar baholandi hamda ushbu ko'rsatkichlar negizida Hududiy muammolar indeksi (HMI) shakllantirildi.



1-rasm. Fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash modeli<sup>1</sup>.

Shakllangan indeks hududlarning bandlik darajasi, aholi daromadlari, investitsiyalar hajmi, infratuzilma sifati va aholi farovonligi kabi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Natijada fuqarolar murojaatlari hududlarda mavjud muammolarni aniqlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda muhim indikator vazifasini bajarishi aniqlandi. Shu asosda hududlarni reytinglash, muammoli yo'nalishlarni belgilash hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

1 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan



Fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning konseptual modeli keltirilgan. Modelning boshlang'ich elementi sifatida fuqarolar murojaatlari qabul qilingan bo'lib, ular hududlarda mavjud muammolar va aholining dolzarb ehtiyojlarini aks ettiruvchi muhim axborot manbai hisoblanadi. Modelning birinchi bosqichida murojaatlar kommunal xizmatlar, bandlik, ijtimoiy himoya, yo'l infratuzilmasi, tadbirkorlik hamda ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishlari bo'yicha tasniflanadi. Ushbu tasniflash hududlarda qaysi sohalarida muammolar ko'proq uchrayotganligini aniqlash va ularni tizimli ravishda guruhlash imkonini beradi.

Ikkinchi bosqichida murojaatlar bo'yicha muammolar baholanadi. Bunda murojaatlar soni, takroriy murojaatlar ulushi, murojaatlarning dolzarblik darajasi hamda hududlar kesimidagi ulushi asosiy baholash mezonlari sifatida qabul qilinadi. Murojaatlar sonining ortishi muammoning keng tarqalganligini bildirsa, takroriy murojaatlar ulushi mazkur masalalar bo'yicha qo'shimcha boshqaruv choralarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi. Dolzarblik darajasi murojaatlarning aholi turmush sifatiga ta'sirini aniqlashga xizmat qiladi, hududlar kesimidagi ulush esa muammolarning hududiy taqsimotini baholash imkonini beradi.

Mazkur ko'rsatkichlar asosida Hududiy muammolar indeksi (HMI) shakllantiriladi. HMI hududlarda mavjud muammolar darajasini kompleks baholovchi integral ko'rsatkich bo'lib, u fuqarolar murojaatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarini birlashtiradi. Indeksning yuqori qiymati hududda e'tibor talab qiluvchi masalalar nisbatan ko'proq ekanligini, past qiymati esa boshqaruv samaradorligi nisbatan yuqoriligini anglatadi.

Modelning yakuniy bosqichida HMI hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari bilan bog'lanadi. Jumladan, bandlik darajasi, aholi daromadlari, investitsiyalar hajmi, infratuzilma sifati hamda aholi farovonligi kabi ko'rsatkichlar asosida hududlarning rivojlanish holati baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, murojaatlar soni va Hududiy muammolar indeksi yuqori bo'lgan hududlarda ayrim ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar nisbatan pastroq shakllanishi mumkin. Aksincha, murojaatlar samarali hal etilayotgan hududlarda aholi farovonligi, investitsiyaviy faollik va bandlik darajasi yuqoriroq bo'lishi kuzatiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqotda fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning zamonaviy yondashuvlari o'rganildi hamda ushbu ma'lumotlardan mahalliy boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari fuqarolar murojaatlari nafaqat aholi muammolarini aks ettiruvchi axborot manbai, balki hududlarning rivojlanish holatini baholashga xizmat qiluvchi muhim indikator ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida fuqarolar murojaatlarini kommunal xizmatlar, bandlik, ijtimoiy himoya, yo'l infratuzilmasi, tadbirkorlik hamda ta'lim va sog'liqni saqlash yo'nalishlari bo'yicha tasniflash asosida hududlarda mavjud muammolar tizimlashtirildi. Murojaatlar soni, takroriy murojaatlar ulushi, dolzarblik darajasi va hududlar kesimidagi ulush ko'rsatkichlari asosida Hududiy muammolar indeksi (HMI) shakllantirildi. Mazkur indeks hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholash va hududlar reytingini shakllantirish imkonini beruvchi samarali vosita sifatida taklif etildi.

Tadqiqotning ilmiy natijasi sifatida fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashning konseptual modeli hamda Hududiy muammolar indeksini shakllantirish mexanizmi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv hududiy rivojlanishni monitoring qilish, muammoli yo'nalishlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Fuqarolar murojaatlari ma'lumotlari asosida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholovchi yagona indikatorlar tizimini joriy etish maqsadga muvofiq.

Davlat organlari va mahalliy hokimiyatlar faoliyatini baholashda Hududiy muammolar indeksi (HMI) ko'rsatkichlaridan foydalanish amaliyotini yo'lga qo'yish lozim.

Fuqarolar murojaatlarini tahlil qilish jarayonlariga sun'iy intellekt, Big Data va Data Mining texnologiyalarini keng joriy etish zarur.

Hududlarda takroriy murojaatlar soni yuqori bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha alohida "muammolar xaritasi"ni shakllantirish va muntazam yangilab borish tavsiya etiladi.

Elektron murojaatlar tizimlarini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va boshqa axborot tizimlari bilan integratsiyalash orqali hududiy rivojlanish monitoringini kuchaytirish lozim.

Mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini baholashda murojaatlarni ko'rib chiqish tezligi va ularni ijobiy hal etish darajasini asosiy KPI ko'rsatkichlari sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Fuqarolar murojaatlari asosida shakllanadigan hududiy reytinglarni e'lon qilib borish orqali davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va hisobdorligini oshirish zarur.



Hududlarda aniqlangan muammolar bo'yicha investitsiya, infratuzilma va ijtimoiy dasturlarni manzilli shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish lozim.

Fuqarolar murojaatlari asosida prognozlash va risklarni baholash tizimini joriy etish orqali ehtimoliy ijtimoiy-iqtisodiy xatarlarni oldindan aniqlash imkoniyatlarini kengaytirish tavsiya etiladi.

Fuqarolar murojaatlarini hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishning muhim axborot manbalaridan biri sifatida institutsional jihatdan mustahkamlash zarur.

Tahlillar natijasida fuqarolar murojaatlari va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Xususan, murojaatlar sonining yuqoriligi ko'pincha bandlik, kommunal xizmatlar va infratuzilma bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, murojaatlarni o'z vaqtida va sifatli hal etish aholi qoniqish darajasi hamda hududlarning rivojlanish ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot davomida fuqarolar murojaatlari ma'lumotlaridan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholashda foydalanish davlat boshqaruvining samaradorligini oshirish, aholi ehtiyojlariga mos qarorlar qabul qilish hamda hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Начало формы

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cambria, E., White, B. Jumping NLP curves: A review of natural language processing research // *IEEE Computational Intelligence Magazine*. 2014. Vol. 9, No. 2. P. 48–57. doi:10.1109/MCI.2014.2307227.
2. Han, J., Pei, J., Tong, H. *Data Mining: Concepts and Techniques*. 4th ed. Cambridge: Morgan Kaufmann, 2022.
3. Krugman, P. *Geography and Trade*. Cambridge, MA: MIT Press, 1991.
4. Mayer-Schönberger, V., Cukier, K. *Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work, and Think*. Boston: Houghton Mifflin Harcourt, 2013.
5. Nabatchi, T., Leighninger, M. *Public Participation for 21st Century Democracy*. Hoboken: Jossey-Bass, 2015.
6. Osborne, D., Gaebler, T. *Reinventing Government: How the Entrepreneurial Spirit Is Transforming the Public Sector*. Reading, MA: Addison-Wesley, 1992.
7. Porter, M. E. Clusters and the new economics of competition // *Harvard Business Review*. 1998. Vol. 76, No. 6. P. 77–90.
8. Sen, A. *Development as Freedom*. Oxford: Oxford University Press, 1999.
9. Stiglitz, J. E., Sen, A., Fitoussi, J.-P. *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress*. Paris: Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress, 2009.
10. Abdurahmonov, Q. X. *Mintaqaviy iqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
11. Berkinov, B. B. *Hududiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish omillari*. Toshkent: Fan, 2020.
12. O'lmasov, A., Vahobov, A. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2014. 424 b.
13. Rasulov, A. *Hududiy iqtisodiyot*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-5841063>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoni. // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-6324756>
16. United Nations Department of Economic and Social Affairs. *United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development*. New York: United Nations, 2024.
17. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington, DC: World Bank, 2021.
18. OECD. *Government at a Glance 2023*. Paris: OECD Publishing, 2023. doi:10.1787/3d5c5d31-en.
19. United Nations Development Programme. *Human Development Report 2023/2024: Breaking the Gridlock: Reimagining Cooperation in a Polarized World*. New York: UNDP, 2024.
20. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Rasmiy veb-sayt. – URL: <https://stat.uz>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>